FARG‘ONA VILOYATI QUVASOY SHAHAR HOKIMI
Q A R O R I

2022 - yil 10 - yanvar 8-11-167-Q/22 Quvasoy shahar hokimligi

Quvasoy shahridagi qabristonlarda dafn etish xizmatlarini ko‘rsatish bo‘yicha tariflar miqdorini tasdiqlash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasining “Dafn etish va dafn ishi to‘g‘risida”gi Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Dafn etish va dafn ishi to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunini amalga oshirish chora-tadbirlari haqida” 2011-yil 4-apreldagi 101-son qarori hamda O‘zbekiston Respublikasining “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6, 25-moddasiga asosan Quvasoy shahar hududidagi dafn etish joylarini saqlash va obodonlashtirish maqsadida,

QAROR QILAMAN:

1. Quvasoy shahrida dafn etish xizmatlarini ko‘rsatish bo‘yicha tariflar miqdori ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

2. Shahar hokimining o‘rinbosarlari Sh.Tursunbayev, A.Xaydarovlar shahardagi barcha MFY raislari bilan hamkorlikda qabristonlarni zarur darajada saqlash va obodonlashtirish hamda hasharlar, xotirlash kunlari va boshqa tadbirlarni tashkil etish;

sanitariya qoidalari va meyorlariga qat’iyan rioya etgan holda qabristonlarni ochish va yopishda qonuniylikni ta’minlasin, qabristonlar tashkil etish uchun yer uchastkasi ajratishni yer to‘g‘risidagi qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshirsin.

3. Shahar Obodonlashtirish boshqarmasi J.Polvonov hamda qabristonlarning ma’muriyati:

xizmatlar uchun qat’iyan belgilangan tariflar bo‘yicha hisob-kitob qilgan holda fuqarolarning qabristonda ko‘rsatiladigan xizmatlarga doir buyurtmalarini o‘z vaqtida va sifatli bajarilishini;

- qabristonlarda byustlar, haykaltaroshlik yodgorliklari yoki alohida arxitektura shakliga ega bo‘lgan inshootlarni o‘rnatish, obyektlarni saqlash va ulardan foydalanish qoidalariga rioya etilishini ta’minlasin.

4. Shahar hokimligi Axborot xizmati (Z.Abdullajonov), “Isfayram” ro‘znomasi muxarriri

(O‘.Karimova)lar ushbu qarorni shahar hokimligi tasarrufidagi “Isfayram” gazetasida rasman e’lon qilinsin va shahar hokimlikning rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin.

5. Ushbu qaror rasman e’lon qilingan kundan boshlab kuchga kiradi.

6. Mazkur qaror ijrosini nazorat qilish shahar hokimining birinchi o‘rinbosari X.Xoldarov zimmasiga yuklansin.

shahar hokimi **To‘rakulov Z. K.**

Қувасой шаҳар ҳокимининг
2022 йил 10 январдаги
8-11-167-Q/22-сон қарорига
1-илова

Quvasoy shahridagi qabristonlarda dafn etish xizmatlarini ko‘rsatish bo‘yicha tariflar miqdori

so‘m

T\r	Xizmat turi	O‘lchov birligi	Tuman (shahar)lar
1.	Go‘r qazish	1 o‘ringa	**148 500**
2.	Tegishli diniy konfessiya qabristonida vafot etgan yaqinlari va qarindoshlarini dafn etish uchun uchastka olish	1 o‘ringa	**bepul**
3.	Marosim xizmatlaridan foydalanish	1 kunga	**bepul**
4.	Qabrga va qabr usti yodgorliklariga qarash uchun qabriston anjomlaridan foydalanish	1 o‘rin/kunga	**bepul**